

Bakalavriatura yo'nalishlari

<p>60722600 - “Geodeziya va geoinformatika”</p>	<p>60722600 - “Geodeziya va geoinformatika” – bakalavriat ta’lim yo’nalishi yer va sayyoralarning yuzalari, uning qa’ridagi suniy va tabiiy ob’yektlar, jumladan ulardan foydalanish va holatini nazorat qilish, qurilish hamda ko’chmas mulk ob’yektlari, shaharlar va aholi yashash joylari chegarasidagi yer uchastkalari, yer va ko’chmas mulklardan foydalanishni nazorat qilishda geodeziya, kartografiya va kadastr ishlarini yuritish va raqamlashtirish; geoaxborot tizimini asosida geodeziya, kartografiya va kadastr malumotlaridan foydalanish, injenerlik qidiruv loyiha-texnik xujjatlarini ishlab chiqish hamda geodeziya va yerlarni o’lchash yo’nalishida texnik va muhandislik xizmatlarini ko’rsatish bo’yicha oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi.</p>
<p>60810600 - “Yer tuzish va yer kadastr”</p>	<p>60810600 - “Yer kadastr va yer tuzish”- bakalavriat ta’lim yo’nalishi iqtisodiyotning turli tarmoqlarida foydalaniladigan yer resurslari, ularning yer fondi toifalari bo’yicha taqsimlanishi, yerdan foydalanish va yer egaliklari, yerdan foydalanishning huquqiy holati, miqdori va sifat tavsifi, ulardan foydalanish va holatini nazorat qilish va boshqarish hamda ko’chmas mulk obyektlari, shu jumladan shaharlar va aholi yashash punktlari chegarasidagi yer uchastkalarini ajratish, ularning huquqiy statusini belgilash, qishloq xo’jaligi ishlab chiqarishi hududini tashkil etish, yerda foydalanishni nazorat qilish va monitoringi; yer axborot tizimlari; yer tuzishda loyiha-texnik xujjatlarni tayyorlash bo’yicha oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi.</p>
<p>60722800-Kadastr (faoliyat turlari bo’yicha)</p>	<p>60722800-Kadastr (faoliyat turlari bo’yicha) ta’lim yo’nalishi ta’lim Kadastr sohasiga oid yo’nalish bo’lib, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida respublikada yuritilayotgan davlat kadastrlari turlari bo’yicha foydalaniladigan obyektlari, Kadastr agentligi infratuzilmasi va korxonalari, kadastr turlariga oid yer uchastkalari va ular hududidagi obyektlar, yerdan foydalanish, yer egaliklari, obyektlardan foydalanishning huquqiy holati, miqdori va sifat tavsifi, ulardan foydalanish hamda holatini nazorat qilish va boshqarish bo’yicha oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi.</p>
<p>60722700-Yerni masofaviy zondlashda innovatsion texnologiyalar</p>	<p>60722700-Yerni masofaviy zondlashda innovatsion texnologiyalar - fan va texnika sohasidagi yo’nalish bo’lib, qishloq xo’jaligi, ekologiya va atrof muhit muhofazasi, geologiya va qurilish maqsadlari uchun yer va sayyoralarning shakli va o’lchamlarini aniqlash uchun maxsus o’lchovlarni olib borish, yer yuzasi va qa’ridagi boyliklarni aniqlash, qurilish ob’ektlarini qurish va monitoring qilish, raqamli karta va planlarni tuzishda distansion zondlash usularini qo’llash va kartografik va geoaxborot tizimlarni barpo etishda masofaviy zondlash, yerni modeli sifatida ilmiy va amaliy maqsadlarda, inson faoliyatining uslub va usullari bilan bog’liq kompleks masalalar majmuasini eshish bo’yicha oliy ma’lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi.</p>

**60112400 -
Professional ta'lim
(Yer kadastr va yer
tuzish)**

60112400 - Professional ta'lim (Yer kadastr va yer tuzish) bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'rta maxsus va kasb-hunar bilim yurtlarida o'quv jarayonini samarali tashkil etish, pedagogik hamda ishlab chiqarish faoliyatini olib borish orqali iqtisodiyotning turli tarmoqlarida foydalaniladigan yer resurslari, ularning yer fondi toifalari bo'yicha taqsimlanishi, ulardan foydalanish va holatini nazorat qilish, ko'chmas mulk obyektlari, shu jumladan shaharlar va aholi yashash punktlari chegarasidagi yer uchastkalarini ajratish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi hududini tashkil etish, yerda foydalanishni nazorat qilish va monitoringi; yer axborot tizimlari; yer tuzishda loyiha-texnik xujjatlarni tayyorlash bo'yicha o'rta maxsus ma'lumotga ega kadrlarni tayyorlashda professional ta'lim sohasi bilan shug'ullanuvchi oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlaydi.